



**TASDIQLAYMAN:**

**Boshqaruv raisining birinchi  
o'rinbosari - ijrochi direktor**



**Axmedov D.T**

2022 yil 15 noyabr

## **TEXNIK TOPSHIRIQ**

**“Atrof-muhitga ta’sirni baholash” va “Ekologik oqibatlar to’g’risidagi bayonot”  
loyihalarini ishlab chiqish bo’yicha xizmatlar ko’rsatish uchun (ATB va EOTB  
loyihasi)**

**Kislorod uskunalari**

**IQM departamentining bo’limlari bo’yicha:**

**“Andijon IQM filiali Andijon uchastkasi, Qashqadaryo IQM filiali Qarshi  
uchastkasi, Qoraqalpog’iston IQM filiali Nukus uchastkasi, Samarqand IQM filiali  
Samarqand uchastkasi, Surxondaryo IQM filiali Xayrobod uchastkasi,  
Namangan IQM filiali Namangan uchastkasi” ob’ektlari.**

2022 yil Bekobod sh.

**Xizmatlarni taqdim etish:** "Atrof-muhitga ta'sirini baholash" va "Ekologik oqibatlar to'g'risidagi bayonot" loyihalarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatish talab qilinadi.

**IQM departamentining bo'limlari bo'yicha kislorod stansiyalari:**

"Andijon IQM Andijon uchastkasi, Qashqadaryo IQM Qarshi uchastkasi, Qoraqalpog'iston IQM Nukus uchastkasi, Samarqand IQM Samarqand uchastkasi, Surxondaryo IQM uchastkasi Xayrabod, Namangan IQM Namangan uchastkasi" ob'ektlarida (ATB va EOTB loyihasi), Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologiya davlat qo'mitasi o'rganlarida davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasini olish, va ekspertiza to'lovlari pudratchi tomonidan amalga oshiriladi.

**Xizmatlarni ko'rsatishdan maqsad:** O'zbekiston Respublikasining ekologiya qonunchiligini amalga oshirish.

**Xizmatlarni taqdim etish uchun asoslar:**

- O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Nizomni tasdiqlash haqida 2020 yil 7 sentyabrdagi 541 - son Davlat ekologik ekspertizasi to'g'risida".

**Xizmatlar shartlari:**

Loyiha shartnoma imzolangan kundan boshlab 50 kun ichida ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi kerak.

Moliyalashtirish manbasi:

"O'zmetkombinat" AJning o'z mablag'lari.

**Ob'ektning xarakteristikasi:**

Ushbu kislorod stansiyalari IQM bo'limi uchastkalarida metall qoldiqlarini qayta ishlash joylarida kislorod ballonlarini to'ldirish uchun qurilishi rejalashtirilgan.

Korxonaning mazkur hududida kislorod stansiyalari qurilishi rejalashtirilganidan oldin bo'sh yerlar bo'lib, atmosfera havosi, suv, o'simlik va hayvonot dunyosiga zarar yetkazuvchi manba'lar mavjud emas edi.

**Xizmat talablari:**

- Ekologik loyihalash sohasida 3 (uch) yildan ortiq bo'lgan tajriba;
- 1-toifaga mansub ishlab chiqarish korxonalarida "Atrof-muhitga ta'sirini baholash" va "Ekologik oqibatlar to'g'risidagi bayonot" loyihalarini ishlab chiqib ijobiy hulosa olgan.
- Ishlab chiqilgan loyihaga etirozlar mavjud bo'lsa, loyihachi davlat ekologik ekspertizasidan ijobiy xulosa olish uchun loyihada keltirilgan etirozlarni bartaraf qiladi va qo'shimcha to'lovlarsiz loyihani yakunlaydi, xizmatlar ko'rsatish muddatini oshiradi va davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasini olish va ekspertizadan o'tkazilganlig uchun to'lovlarni loyihachi tomonidan amalga oshiriladi.

**Texnik taklif tarkibiga qo'yiladigan talablar:**

- ish natijalari tavsifi;
- xarajat moddalari bo'yicha taqsimlangan ishlarni bajarish qiymati.

**Xizmatni qabul qilish talablari:**

Xizmatlarni qabul qilish, davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasini olish uchun, ko'rsatilgan xizmatlarni qabul qilish va topshirish dalolatnomasini imzolash, ekspertiza o'tkazish uchun haq to'lash yo'li bilan amalga oshiriladi. Agar ko'rsatilgan ekspertiza natijasini yomonlashtiradigan ishlar ro'y bersa ya'ni; texnik topshiriq xizmatlarning natijasini yomonlashtiradigan ishlar ro'y bersa ya'ni; texnik topshiriq talablaridan chetga chiqish aniqlansa, buyurtmachi bu haqda pudratchiga ko'rsatilgan xizmatlarni qabul qilish va topshirish dalolatnomasini imzolashdan asosli bosh tortgan holda e'lon qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.

**Tugallangan ishni Buyurtmachiga topshirishga qo'yiladigan talablar:**

Davlat ekologiya qo'mitasi o'rganlarida kelishilgan ATB va EOTB loyihasi, davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasini olish ba ekspertiza o'tkazganlik uchun to'lov pudratchi tomonidan amalga oshirish qabul qilish va topshirish dalolatnomasi buyurtmachiga qog'ozda, PDF va WORD shaklida shuningdek elektron tashuvchi vositada 3 (uch) nusxada topshiradi.